Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПП	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyevna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	
Malakali futbolchilarni tayyorlashning innovatsion pedagogik va texnologik uslublari.....	802
Maxmudov Mamat Raxmatovich	
Maktabgacha ta'limda madaniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish metodikasi.....	807
Adolat Xolmatova Muxammadjonovna	
Oliy ta'limda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirishda maxsus pedagogikaning o'rni	811
Alijonova Dilorom Azamjonovna	
Sportning kurash turi tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	815
Do'stov Dilmurod Karimovich	

O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	818
Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich	
The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress	821
Ortikova Nargiza Xayrullayevna, Normuratov Laziz Azizovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzi buzilishining turlarini va darajasini aniqlash usullari	826
Otaboyeva Nodira Qodir qizi	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati	830
Qobilova Aziza Tursunovna	
Intellectual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari	833
Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich	
Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish	837
Sultanova N. B., Toshpo'latova N. I., Azimov B. I.	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	840
Суяров Хуршид Бахриддинович	
Oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari	844
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari	852
Turapova Ra'no Barat qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish	857
Jurayeva Muhayyo Nematillayevna	
Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	861
Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish	865
Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich	
Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	868
Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna	
The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives)	873
Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli	
Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish	877
Yuldasheva Gulsanam Arken qizi	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов	881
Бахриева Шахноза Давроновна	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики"	886
Равшанова Иноят Эркиновна	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge"	889
Тагаева Тамара Баходировна	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi	892
D. S. Zokirova	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	895
Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari	898
Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish	901
Ortiqova Zulfiya Nurmuhamedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari	905
Rustemov Muxamed Biysenbayevich	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture	908
Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
Salixova Muhayyo Shakirovna	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna	
Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
U. M. Utbasarova	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
Алибекова Лайло Рахмановна	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
Raimova Nasiba Abdreimovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
Turg'unov Mirjalol Mirzahamdami o'g'li	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
Bahronova Maftuna Farhadovna	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li	

AUTIZM SPEKTORI BUZILISHI BO'LGAN BOLALAR TAVSIFI

U. M. Utbasarova

Alfraganus universiteti v. b. dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sensor buzilishlari mavjud bo'lgan autizm spektriga mansub bolalarda kuzatiladigan hissiy-irodaviy soha kamchiliklari asosida guruhlariga ajratilgan tasnif keng yoritilgan. Tadqiqotda autizmning turli shakllari, bolalarning xulq-atvori, motor rivojlanishi, atrof-muhit bilan muloqoti hamda himoya mexanizmlarining namoyon bo'lish xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Autizm, diqqat, sindrom, sensor integratsiya, motor rivojlanish, iroda, autostimulyatsiya, stereotipiya.

Abstract: This article provides an in-depth classification of children with autism spectrum disorder based on sensory processing impairments and the characteristics of their emotional-volitional sphere. The study analyzes various manifestations of autism, behavioral patterns, motor development features, interaction with the environment, and specific protective mechanisms observed in children belonging to different groups of the spectrum.

Key words: Autism, attention, syndrome, sensory integration, motor development, volition, autostimulation, stereotypy.

Аннотация: В данной статье всесторонне раскрыта классификация детей с расстройствами аутистического спектра на основе нарушений сенсорной переработки и особенностей эмоционально-волевой сферы. В исследовании проанализированы формы проявления аутизма, особенности поведения, моторного развития, взаимодействия с окружающей средой, а также механизмы защитных реакций у детей с разным уровнем расстройств.

Ключевые слова: Аутизм, внимание, синдром, сенсорная интеграция, моторное развитие, воля, аутоstimуляция, стереотипия.

KIRISH

Autizm spektri buzilishi zamonaviy neyropsixologiya va maxsus pedagogika sohalaridagi eng murakkab rivojlanish nuqsonlaridan biri bo'lib, bolalarning ijtimoiy muloqoti, xulq-atvori, hissiy-irodaviy rivojlanishi va sensor qabul qilish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda autizm tashxisi qo'yilayotgan bolalar sonining ortib borishi ushbu holatning ilmiy jihatdan chuqur o'rganilishini talab qilmoqda. Autizmning har bir bolada turlicha namoyon bo'lishi, ularning shaxsiy xususiyatlari, sensor sezgirlik darajasi, motor rivojlanishi va ijtimoiy moslashuv faoliyatiga qarab differensial yondashuvni zarur qiladi. Shuningdek, autizmni guruhlariga ajratish nafaqat tashxis jarayonini aniqlashtiradi, balki tuzatish-pedagogik ishlarning samarali olib borilishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada autizm spektri buzilishiga ega bolalarning turli guruhlardagi tipik belgilari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autizm spektri buzilishining ilmiy asoslari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda bolalarning sensor qabul qilish, hissiy-irodaviy rivojlanish hamda ijtimoiy moslashuvdagi murakkabliklar markaziy o'rinni egallashi ta'kidlanadi. Drobinskaya autizimli bolalarda atrof-muhitni idrok etishdagi cheklanishlar ularning o'quv jarayoniga sezilarli darajada ta'sir qilishini ko'rsatadi. Arxipov va Maksimova tomonidan ilgari surilgan fikrlarda "o'zini his etish"dagi buzilishlar bolaning psixik rivojlanishida markaziy omil sifatida talqin etiladi. Samatova esa ko'rishida jiddiy nuqsoni bo'lgan autizimli bolalarda sensor integratsiya yanada murakkab shaklda namoyon bo'lishini ilmiy asosda izohlaydi.

Autizimli bolalar bilan ishlashda korreksion metodlarning samaradorligini oshirish masalalari ham adabiyotlarda keng yoritilgan. Lyutova va Monina bolalar bilan samarali o'zaro ta'sirni tashkil etish bo'yicha trening



dasturlarini ishlab chiqib, ularda xatti-harakatni boshqarish, nutqni qo'llab-quvvatlash va muloqotga yo'naltirish texnikalarini asoslab beradi. Alvin tomonidan taqdim etilgan musiqiy terapiya yondashuvi esa autizmli bolalarni emotsional tinchlantirish, stereotip harakatlarni kamaytirish va ijtimoiy faoliyatga jalb etishda yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur manbalar autizmni o'rganish va tuzatish-pedagogik jarayonni tashkil etishda ilmiy asoslangan amaliy metodlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi autizm spektori buzilishiga ega bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ma'lumotlar asosan kuzatish, klinik-pedagogik suhbat va xulq-atvorni tahlil qilish usullari orqali yig'ildi. Bolalarning sensor reaksiyalari, motor rivojlanishi, hissiy-irodaviy holati, ijtimoiy munosabatlar va nutqiy faolligi tabiiy sharoitlarda muntazam kuzatilib, xatti-harakatlarining dinamik o'zgarishlari qayd etildi. Ota-onalar va pedagoglar bilan o'tkazilgan suhbatlar orqali bolaning avvalgi rivojlanish tarixi, muloqotdagi qiyinchiliklari va kundalik hayotdagi moslashuv darajasi haqida qo'shimcha ma'lumotlar olindi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda kontent tahlili, solishtirma tahlil va holatga oid tavsifiy yondashuvdan foydalanildi. Har bir bolaning sensor sezgirlik, xulq-atvor stereotiplari va kommunikativ faoliyatiga oid ma'lumotlar guruhlashtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlangan holda to'rt guruhga tasniflash imkonini berdi. Tahlil jarayonida kuzatish natijalari o'zaro taqqoslanib, autizmning namoyon bo'lish darajasi, himoya reaksiyalari va ijtimoiy adaptatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy asosda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tasnifi

1-guruh: Bolaning nutqi yo'q va xulq-atvor buzilishlari mavjud: ko'z kontaktini ushlab tura olmaydi, tashqi ta'sirga umuman javob reaksiyasi yo'q, o'z ismiga, buyruqlarga va iltimosga nisbatan befarq.

Autizm namoyon bo'lishi: Atrof-muhitdan uzoqlashish va atrofdagi predmet hamda hodisalarni o'rganishga qiziqmaslik.

Bolaning tashqi ko'rinishi: Bolalarning tashqi ko'rinishi gohida ahmoqona, gohida juda aqlli yuz ifodasi bilan atrofda qiladilar sirli taassurot qoldiradi. Iltimoslarga javob qaytarmaydilar va o'zlari ham kattalardan hech narsa so'ramaydilar, ko'pincha og'riq, ochlik va sovuqqa ham reaksiya qilmaydilar. Boshqa bolalar qo'rqishi kerak bo'lgan vaziyatlarda bu bolalar umuman qo'rqoqlik ko'rsatmaydilar.

Motor rivojlanish holati: Xona ichida maqsadsiz harakatlanishda ular ajoyib harakat muvofiqligini ko'rsatishi mumkin: sakrash, tor yo'laklardan o'tishda ular hech qachon jarohatlanmaydilar va xatoga yo'l qo'ymaydilar. Ulardan biror narsani ixtiyoriy ravishda qilishni o'rgatishga urinishda umumiy va mayda motor harakatlarda mushak tonusida jiddiy buzilishlar, sustlik va kuchsizlik aniqlanadi; ular uchun zarur holatni egalash va ushlab turish, qo'l va ko'z harakatlarini muvofiqlashtirish (bola faqat o'z harakatlariga qaramaydi), kerakli harakatlar ketma-ketligini takrorlash murakkab hisoblanadi. Bola kattalarning buyrug'iga bo'ysunishga o'rgatilgandagina kerakli motor holatni qabul qilishi yoki harakatni takrorlashi mumkin, lekin motor ko'nikmani mustahkamlashda katta qiyinchilikka duch keladi.

Xulq-atvor: Bolaning xulq-atvori vaziyatga ko'ra o'zgaruvchan. U ichki faol intilishlar, boshqa inson bilan munosabat o'rnatish uchun emas, tasodifiy tashqi ta'sirlar bilan belgilanadi. Bu xulq-atvor bolaga kerakli ko'nikmani o'rgatishda predmetning yaxlitligi emas, balki uning ovozi yoki yorqin rangi orqali bola diqqatini jalb qiladi. Bola maqsadli ravishda bir xonadan ikkinchisiga bormaydi, balki xonalarning fazoviy joylashuvi bola tanasini shu yo'nalishda harakatlanishga majbur qiladi.

Atrof-muhit bilan aloqa: Bolalar atrof-muhit bilan aloqalarda maksimal darajada masofani saqlaydilar, faol aloqaga kirishmaydilar.

Nutqning rivojlanishi: Bu bolalar mustaqil nutqni egallay olmaydilar, lekin ba'zan alohida so'zlarni va hatto iboralarni maqsadsiz talaffuz qilishlari mumkin (ammo ularni qayta takrorlashni so'rasangiz, takrorlamaydilar). Bola nafaqat so'zdan foydalanmaydi, balki ishoralar, mimika va tasviri harakatlardan ham foydalanmaydi. Bunday bolalarning gug'ulash davrida ham kommunikatsiya elementi bo'lmaydi; ovozlar so'zsiz xarakterga ega – shivirlash, chug'urlash kabi musiqiy ohanglarda namoyon bo'lishi mumkin.

Autizmida himoya shakllari: Atrof-muhitdagi o'zgarishlarga faol qarshilik kam darajada ifodalanadi. Ushbu guruh bolalarida autistik himoyaning faol shakllari kam rivojlangan. Faol ravishda faqat bolani tanasini bo'ysundirishga qaratilgan harakatlar jarayonida namoyon bo'ladi.

Autostimulyatsiya shakllari (stereotipiyalar): Primitiv motor stereotipiyalarning belgilangan shakllari deyarli mavjud emas. Ular uchun vizual, vestibulyar va teri-taktil hissiyotlar muhim bo'lib, o'z harakatlarini takrorlash bilan namoyon bo'ladi. Bu bolalar deraza yonida o'tirib, ko'chadagi harakatlarni soatlab kuzatishlari mumkin. Stereotipiya ularda asosan yangi ma'lumotni qabul qilishdagi qiyinchiliklar vaqtida namoyon bo'ladi.

Ko'z aloqasi: Ko'z kontakti yo'q. Agar bola bilan bu ko'nikma ustida ishlanmasa, mustaqil ravishda shakllanmaydi.

2-guruh: Ota-onalar, avvalo, bolaning psixik rivojlanishi, xususan, nutq rivojlanishining orqada qolishi to'g'risida shikoyat qiladilar; qolgan muammolar haqida esa keyinroq xabar berishadi.

Autizmning namoyon bo'lishi: Bola uchun qabul qilish qiyin bo'lgan har qanday aloqaga nisbatan rad etish holati kuzatiladi. Bolada dunyoga nisbatan nafrat, muloqotdan qochish va begonalashish hissi xos.

Bolaning tashqi ko'rinishi: Bu guruhdagi autizimli bolalarning yuzlari odatda zo'riqqan, qo'rquv grimasasi bilan buzilgan bo'ladi; harakatlari qo'pol va tabiiylikdan yiroq. Bu bolalarda harakatlarda plastiklik va fazoda erkin harakatlanish qobiliyati yo'q. Harakatlari tarang, mexanik tarzda bajariladi, qo'l va oyoq harakatlari o'zaro muvofiqlashmagan. Ular go'yoki harakat qilmayapti, balki tana holatini o'zgartirayotgan kabi ko'rinadi; xona ichida yurishlari esa tana bukilgan holda, shoshilinch harakatlar bilan amalga oshiriladi, go'yoki bu joy xavfli ekanidek tuyuladi. Ular boshqalarning harakatlariga taqlid qila olmaydilar. Go'yo qo'llari o'zlariga bo'ysunmaydiganidek harakat qiladi.

Xulq-atvori: Bolalar o'z hayotida shakllangan barcha stereotiplarga qat'iy rioya etilishini talab qiladilar – odatiy muhit, harakatlar, kun tartibi va yaqinlar bilan aloqa shakllari shu jumlagi kiradi. Ular ovqat, kiyim-kechak, sayr yo'nalishlarida o'ta tanlab harakat qilishadi, muayyan mashg'ulotlar va predmetlarga qaram bo'lishadi, yaqinlar bilan munosabatda qat'iy tartibga rioya qilishadi. Ushbu talab va taqiqlarga amal qilinmasa, bolaning xulqida keskin buzilishlar yuzaga keladi.

Atrof-muhit bilan aloqa: Dunyo bilan tanlab aloqa o'rnatadilar. Ular uchun yoqimsiz yoki qo'rqinchli bo'lgan narsalar xotirada mustahkam saqlanadi va turli taqiqlar shakllanadi. Biroq ularda sodda stereotip harakatlar arsenalini mavjud bo'lib, aynan shu doirada o'zlarini xotirjam va himoyalangan his qilishadi.

Nutq rivojlanishi: Bu bolalar muloqotga kirisha oladilar va o'z ehtiyojlarini ifoda etish uchun nutqdan foydalanishlari mumkin. Ularning ovozi bug'iq, me'yorda rivojlanayotgan bolalarnikidan farq qiladi. Ular tayyor nutq qoliplari va buyruqlarni o'zlashtiradilar; bu qoliplar muayyan vaziyatlar bilan bog'langan bo'ladi. Holat exolaliya (eshitilgan so'zlarni takrorlash), qisqa va "telegraf" uslubida so'zlashish, birinchi shaxs olmoshlarini uzoq vaqt qo'llamaslik, iltimoslarni infinitiv yoki uchinchi shaxsda bayon qilishga moyillik shaklida namoyon bo'ladi. Ya'ni bola o'z murojaatlarida yaqinlarining so'zlarini qayta aytadi. Murojaatlarning yo'qligi shundan bilinadi: bolada na ko'rsatuvchi ishoralar, na kommunikativ mimika shakllangan. Ular nutqdagi intonasiyani ham ta'sir vositasi sifatida qo'llamaydilar – u ko'pincha yaqinlarining intonasiyasini takrorlash bilan cheklanadi.

Autizmida himoya shakllari: Bolalar atrof-muhitdagi o'zgarishsiz holatni saqlashga intiladilar va har qanday yangilikka qarshilik ko'rsatadilar. Bu endi shunchaki qochish emas, balki o'zini himoya qilishga qaratilgan keskin harakatlar bo'lib, umumiy agressiyaga aylanishi mumkin. Bu holatda bola o'zini yoki boshqalarni tirnaydi, tishlaydi, baqiradi, boshi, oyog'i, qo'li yoki qo'lga tushgan har qanday predmet bilan qarshilik qiladi. Agar vaziyat butunlay yechimsiz bo'lib qolsa, agressiya o'z yo'nalishini o'zgartiradi va bola o'zini o'zi ura boshlaydi, bu esa hayoti va sog'lig'i uchun jiddiy xavf tug'diradi.

Autostimulyatsiya shakllari (stereotipiyalar): Bu guruh bolalarida turli motor stereotip harakatlar ko'p uchraydi. Ular ushbu harakatlar bilan shu qadar band bo'ladiki, ba'zan ular g'ayrioddiy va murakkab shakllarga kiradi: muayyan mushak yoki bo'g'im guruhlarini tanlab zo'riqtirish, to'g'ri va tarang oyoqlarda sakrash, qo'llarni silkitish, boshni aylantirish, barmoqlarni tez-tez harakatlantirish, arqoncha va cho'pchalarni tebratish va boshqalar. Bu harakatlarda ular ajoyib mayda motorikani namoyon etadilar. E'tiborlisi – motor harakatlar butun tanaga emas, balki alohida qismga tegishli bo'ladi: masalan, butun tana qattiq bo'lsa-da, qo'l erkin harakat qiladi. Bola barmoqlar bilan juda mayda predmetlar bilan ishlashni yoqtiradi va juda yaxshi uddalaydi.

Ko'z kontakti: Kimningdir nigohini tasodifan uchratganda, ular keskin yuz o'girishadi, baqiradilar, yuzlarini qo'llari bilan berkitadilar.

3-guruh

Ota-onalarning asosiy shikoyatlari: Ota-ona bilan bola o'rtasidagi aloqalarning murakkabligi, bolaning boshqa insonlarning qiziqishlari, hissiyotlarini umuman e'tiborga olmasligi hamda bir xil mashg'ulot va qiziqishlar ichida yashashi.

Autizmning namoyon bo'lishi: Bola o'zining qiziqishlari ichida yashaydi va bu holat takrorlanuvchi harakatlar orqali namoyon bo'ladi.

Bolaning tashqi ko'rinishi: Bolaning yuzi qiziquvchanlik qiyofasiga ega. Uning ko'zlari yonib turadi, lablari qisman jilmaygan holatda suhbatdoshiga e'tibor qaratayotgandek tuyuladi, aslida esa u hayoliy insonga qarayotgan bo'ladi. Bola suhbatdoshining ko'ziga uzluksiz qaragandek bo'ladi, ammo aslida u unga e'tibor bermaydi; tez gapiradi va aytayotgan gapining tushunarli bo'lishi haqida o'ylamaydi.



Motor rivojlanishi: Bu bolalarning motor rivojlanishi buzilgan, mushak tonusi muvofiqligi buzilgan, muvozanatni saqlash sust, harakatlari og'ir va ko'pincha xonadagi predmetlarga urilib yurishadi. Mayda qo'l motorikasi sustligi sababli 6–7 yoshda ham elementar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakalarini egallay olmaydilar. Bolaning xulqi: Bola yillar davomida bir xil mavzuda gapiradi, bitta rasmni chizadi yoki bitta predmet bilan o'ynaydi. Ota-onasining baqirishi yoki tanbeh berishni yoqtiradi va atayin qilinmasligi kerak bo'lgan xatti-harakatni qayta-qayta takrorlaydi. Qiziqishlari asosan qo'rqinchli, tajovvuzkor va xavfli hodisalar bilan bog'liq bo'ladi.

Atrof-muhit bilan aloqasi: Ular atrof-muhit bilan aloqada maqsadga ega bo'ladi va shu murakkab maqsadni amalga oshirish rejasiga ega. Muammo shundaki, bolaning rejalarini atrof-muhit bilan uyg'unlashmaydi, buning natijasida bola kuchli buzg'unchilik va tajovvuzkor xulq namoyon qiladi.

Bolaning nutqiy rivojlanishi: Bu bolalar juda ko'p gapiradilar. Ular erta yoshdan boy lug'atga ega bo'ladilar. Bola adabiy va ilmiy tilda gapiradi, lekin bu nutq muloqot uchun minimal darajada yetarlidir. Bola o'z ehtiyojlari, nima qilmoqchiligi haqida gapirishi va savollarga javob berishi mumkin, ammo u bilan suhbat qurish mushkul, chunki bola faqat o'z gapini gapirishni xohlaydi; suhbatdosh fikri unga qiziq emas. Uning nutqi tez, ilmiy, adabiy va ko'pincha tushunarsiz bo'ladi.

Autistik himoya shakli: Bu bolalarda bir xillik mavjud. Ikkinchi guruhga qaraganda, ular o'z qiziqishlariga o'zlari xohlagan holda o'zgartirish kiritadi. Agar hayotiga kiritilayotgan yangilik bola xohlamagan tarzda sodir bo'lsa, unda nafrat va tajovvuzkor xulq yuzaga keladi.

Autostimulyatsiya shakli (stereotipiya): Turli mavzularda fikrlash va ilmiy hamda adabiy tilda gapirish ularga yoqimli his beradi. Shu bilan birga, bolaga tajovvuzkor va qo'rqinchli holatlar yoqadi. Bola doimo "o'g'rilar", "kallakesarlar", "qotillar", "o'ldiraman", "yong'in", "tok urdi" kabi so'zlarni ishlatadi va qo'rqinchli rasmlar chizadi.

Ko'z kontakti: Ko'zga qarab turadi, ammo uning xayoli boshqa joyda bo'ladi.

4-guruh

Ota-onalarning shikoyati: Ota-onalar ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalardagi kabi belgilardan shikoyat qiladilar.

Autizmning namoyon bo'lishi: Bu bolalarda autizm belgilari yengil darajada kuzatiladi. Ular boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishishga qiynaladilar.

Tashqi ko'rinishi: Bu bolalar jismonan zaif, tez charchaydigan, yuz qiyofasi mayus va xavotirli bo'ladi. Yuz mimikasi o'zgaruvchan, lekin me'yordan ancha farqli.

Motor rivojlanishi: Harakatlari sustlashgan, mexanik xarakterga ega.

Xulq-atvori: Bolalar ota-onasiga suyanib qolgan va ularga mehribon. Juda to'g'ri bo'lgan bolalar bo'lib, ular hech qachon aldashni bilmaydilar, har qanday gapni to'g'ri qabul qiladilar. Bu to'g'rilik boshqalar tomonidan "anqovlik" deb talqin qilinishi mumkin. Atrof bilan aloqani ular kattalar yordamida amalga oshiradilar.

Atrof bilan aloqasi: Ular boshqalar bilan munosabatga kirishishga harakat qiladilar, ammo muloqot jara-yonida qiyinchiliklarga duch keladilar.

Nutqiy rivojlanishi: Nutqiy rivojlanishda agrammatizmlar, tushunarsiz nutq, nutqni dasturlashdagi buzilishlar kuzatiladi. Ammo bola o'z xohishlari va ehtiyojini ifodalay oladi. Nutqdagi qiyinchiliklar asosan begona shaxs bilan muloqot vaqtida namoyon bo'ladi.

Autistik himoya shakli: Kattalar, tengdoshlari va begonalarining bolani qabul qilmasligi unda doimiy xavotir, yengil tormozlanish va stereotip sharoitda yashashga olib keladi.

Autostimulyatsiya shakli: Bu bolalarda autostimulyatsiya yo'q. Faqat jiddiy vaziyatlarda motor stereotiplar kuzatilishi mumkin. Bunda bola xavotirlanadi, diqqat tarqoq bo'ladi va bola onasining yupatishi bilan holat yaxshilanadi.

Ko'z kontakti: Bolalar suhbatdoshining ko'ziga qarab turadilar, biroq ko'z kontakti tanaffuslar bilan yon-atrofga qarash va yana suhbatdosh ko'ziga qaytish bilan kechadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari autizm spektori buzilishiga ega bolalarda sensor qabul qilish, xulq-atvor, motor rivojlanishi va kommunikativ faoliyatning o'ziga xos ko'rinishlari mavjudligini ko'rsatdi. Bolalarni to'rt guruhga tasniflash ularning individual ehtiyojlarini aniqlash, korreksion-pedagogik yondashuvni shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Har bir guruhda xulq-atvor stereotiplari, himoya reaksiyalari va nutqiy rivojlanish ko'rsatkichlarining turlicha namoyon bo'lishi korreksion jarayonning differensial rejalashtirilishini talab etadi.

Taklif etilishicha, autizimli bolalar bilan ishlashda sensor integratsiya mashqlari, individual pedagogik dasturlar va strukturaviy o'rgatish metodlari muntazam qo'llanilishi zarur. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, uy sharoitida muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, pedagoglar va mutaxassislar uchun autizm bo'yicha maxsus treninglar tashkil etilishi korreksion jarayon samaradorligini oshiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Drobinskaya, Anna Olegovna. Shkolnye trudnosti "nestandartnyx" detey / A. O. Drobinskaya. – Moskva: Shkolnaya pressa, 2006. – 126 s.
2. Lyutova, Elena Konstantinovna. Trening effektivnogo vzaimodeystviya s detmi: kompleksnaya programma / E. Lyutova, G. Monina. – Moskva: Sfera; Sankt-Peterburg: Rech, 2008. – 190 s.: il.
3. Samatova, Albina Vilsurovna. Korreksiya proyavleniya autichnyx chert u detey rannego vozrasta s glubokimi narusheniyami zreniya / A. V. Samatova; Rossiyskaya gosudarstvennaya biblioteka dlya slepyx. – Moskva: RGBS, 2012. – 59 s.
4. Arxipov, B. A. Narusheniya vospriyatiya "sebya" kak osnovnaya prichina formirovaniya iskajennogo psixicheskogo razvitiya osobyx detey / B. A. Arxipov, E. V. Maksimova, N. E. Semenova. – Moskva: Dialog MIFI, 2012. – 160 s.
5. Alvin, Dzh. Muzykalnaya terapiya dlya detey s autizmom / Dzh. Alvin, E. Uornik; perevod s angliyskogo Yu. V. Knyazkinoy. – Moskva: Terevinf, 2008. – 200 s.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.